

UDK: 378.147.227

OTM TALABALARINI KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH FUNKSIYALARI

Abdullayeva Ozoda Safibullayevna,

NamDTU, pedagogika fanlar doktori, professor, e-mail:

ozoda.safibullayevna121620@gmail.com

ORCID: 0000-0003-4073-7261

Inamov Dilmirza Dedamirzayevich,

NamDU, PhD, dotsent

e-mail: dilmirza1984@gmail.com,

Muxammadjonov Alijon Olimjonovich,

NamDU, tayanch doktorant

e-mail: alijon19920929@gmail.com, +998 (95) 010 75 92,

ORCID: 0009-0000-9279-6138

Annotatsiya: ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalari kommunikativlik (muloqotga kirisha olish) funksiyalarini zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda talabalarning axborot-kommunikatsiya vositalari orqali o'z fikrini erkin ifoda etish, samarali tinglash, muloqotni boshqarish kabi ko'nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli platformalar (masofaviy ta'lim tizimlari, onlayn forumlar, ijtimoiy tarmoqlar va ta'lim ilovalari) orqali o'quv jarayonini kommunikativ jihatdan boyitishning samarali metodlari taklif etilgan. Maqolada amaliy tavsiyalar, eksperimental natijalar va innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, raqamli texnologiyalar, interaktiv usullar, onlayn muloqot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), ta'limda raqamlashtirish, raqamli platformalar.

ФУНКЦИИ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Абдуллаева Озода Сафибуллаевна,

НамГТУ, доктор педагогических наук, профессор.

Инамов Дилмирза Дедамирзаевич,

НамГУ, PhD, доцент.

Мухаммаджонов Алижон Олимжонович,

НамГУ, докторант

Аннотация: в данной статье освещаются вопросы формирования и развития коммуникативных функций студентов высших учебных заведений с использованием

современных цифровых технологий. В исследовании проанализированы подходы, направленные на совершенствование у студентов таких навыков, как свободное выражение своих мыслей, эффективное слушание и управление коммуникацией с помощью информационно-коммуникационных средств. Также предложены эффективные методы обогащения учебного процесса в коммуникативном аспекте через цифровые платформы (системы дистанционного обучения, онлайн-форумы, социальные сети и образовательные приложения). В статье раскрываются возможности развития коммуникативной компетентности студентов на основе практических рекомендаций, экспериментальных результатов и инновационных педагогических подходов.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, цифровые технологии, интерактивные методы, онлайн-коммуникация, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), цифровизация образования, цифровые платформы.

FUNCTIONS OF DEVELOPING UNIVERSITY STUDENTS' COMMUNICATIVE SKILLS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES

Abdullayeva Ozoda Safibullayevna,

NamSTU, doctor of pedagogical sciences, professor.

Inamov Dilmirza Dedamirzayevich,

NamSU, PhD, dotsent.

Mukhammadjonov Alijon Olimojonovich,

NamSU, PhD student

Abstract: *this article explores the issues related to the formation and development of communicative functions among university students through modern digital technologies. The study analyzes approaches aimed at enhancing students' skills such as expressing their thoughts freely, active listening, and managing communication using information and communication tools. It also proposes effective methods for enriching the educational process communicatively through digital platforms such as distance learning systems, online forums, social networks, and educational applications. The article presents practical recommendations, experimental results, and innovative pedagogical approaches to demonstrate the potential for developing students' communicative competencies.*

Keywords: *communicative competence, digital technologies, interactive methods, online communication, information and communication technologies (ICT), digitalization in education, digital platforms.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ko'plab sohalar qatorida oliy ta'lim tizimining zamonaviy talablarga mos tarzda isloh qilinishi, ayniqsa, talabalarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish borasidagi

masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Talabalarning fikrni ravon ifoda etish, axborotni tushunarli yetkazish, samarali muloqot olib borish ko'nikmalarini shakllantirish - ularning shaxsiy va kasbiy yetukligini ta'minlovchi muhim omillardandir.

Ayniqsa, bu jarayonda raqamli texnologiyalarning o'rne tobora ortib borayotgani ahamiyatli. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston – taraqqiyot va ma'rifat yo'lida" tamoyillari asosida ta'limda raqamli muhitni keng joriy etish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha qator qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Jumladan, Muhtaram Prezidentimizning 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2909-sonli qarorida[1] axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng joriy etish orqali zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlash vazifasi belgilangan bo'lib, bunda har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatishi, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta'lim muassasalari magistrant, yosh o'qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o'tashlarini, professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish kabi dolzarb vazifalar belgilab berildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'limda ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning akademik ilm-fan bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga keng jalb etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash, oliy ta'lim muassasalari talabalari, o'qituvchilari va yosh tadqiqotchilarining jahon ta'lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning

elektron kataloglari va ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha ham qator maqsadlar belgilab olingani ahamiyatli.

Mazkur qaror ijrosini ta'minlash doirasida talabalarning kommunikativlik funksiyalarini raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada ayni shu yo'nalishda olib borilgan tahlillar, zamonaviy yondashuvlar va amaliy tavsiyalar yoritib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Raqamli texnologiyalarning tez sur'atlarda rivojlanishi va oliy ta'lim tizimida keng qo'llanilishida ko'plab pedagog olimlarning xizmatlari beqiyos. Masalan mamlaktimiz olimlaridan A.Abduqodirov, U.Begimqulov, B.Abdullayeva, G.Mamutova, G'.M.Nizamov va boshqalar[2,3,5] o'z ilmiy-amaliy pedagogik tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar asosida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish yanada samarali natijalarga olib kelishi, talabalar zarur bilim, ko'nikmalarni mukammal egallashida amaliy ahamiyat kasb etishini o'z tadqiqotlarida isbotlagan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar doirasida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda raqamli vositalar – virtual platformalar, mobil ilovalar, veb-servislar, sun'iy intellekt asosidagi dasturlar va boshqa texnologiyalar keng qo'llanilishi bilimlarni o'zlashtirishda yaxshi ko'makchi bo'la olishini tadqiqot natijalarida o'z ifodasini topgan.

Mahalliy tadqiqotchilar ham raqamli texnologiyalar yordamida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha turli yondashuvlarni taklif qilganlar. Jumladan, G'.Nizamov raqamli platformalarda forum, blog va vebinarlar orqali interaktiv muloqotni tashkil etish samaradorligini tadqiq qilgan. G.Mamutova esa masofaviy ta'limda talabalarning til kompetensiyasini rivojlantirishda videodarslarning o'rni va ta'sirini yoritgan.

Bundan tashqari ko'plab xorijlik tadqiqotchilar: L.S.Viygotskiy, D.Jonson, Vinenko V.G, Mayer[4] va boshqalar ta'kidlaganidek, talabalar o'zaro muloqot jarayonida ijtimoiy faollikni namoyon etishlari, o'z fikrini erkin va asosli bayon eta olishlari, tinglash va tushunish kompetensiyalarini rivojlantirishlari zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Shu nuqtai nazardan qaraganda,

kommunikativ ko'nikmalar nafaqat lingvistik, balki kasbiy va shaxsiy rivojlanishning ham ajralmas elementi hisoblanadi.

Xalqaro tajribalarda ham bu jarayon muhim ahamiyat kasb etishi Yevropa Ittifoqining *"Digital Education Action Plan (2021–2027)"* loyihasida raqamli kompetensiyalar va kommunikativ ko'nikmalar integratsiyasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lsa, polyak pedagogi Puentedura tomonidan ishlab chiqilgan SAMR modeli (Substitution, Augmentation, Modification, Redefinition)[7,8] raqamli vositalarning ta'limdagi funksional darajasini aniqlashda asosiy vosita sifatida qo'llanilmoqda. Shunday qilib, kommunikativ ko'nikmalarni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish ko'p yo'nalishli, tizimli va innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Bu esa oliy ta'lim muassasalari uchun yangi pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishni zaruriy shart qilib belgilaydi.

Tadqiqotda quyidagi bosqichli metodlardan foydalanildi: tahlil va sintez, so'rovnoma, intervyu va kuzatish, eksperimental metod, statistik tahlil usuli, Bu uslublar yordamida dastlab talabalarning raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalari o'rganildi, keying bosqichda ularni sohasiga oid qanday raqamli texnologiyalar o'qitilmoqda, amaliyotda esa korxonalar qaysi dasturiy ta'minotdan foydalanmoqda, ularni sohasiga oid qaysi raqamli texnologiyalar qiziqtiradi, o'quv jarayonida sayoz o'zlashtirilgan darslarni qanday qilib mustaqil o'qib-o'rganish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. O'qitish jarayonida Meet Zoom, Moodle, Padlet kabi onlayn platformalarning o'rni va samarasini aniqlashga doir bir qator kichik tajribalar amalga oshirildi, olingan natijalar esa muntazam tahlil qilinib borildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Olib borilgan tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish OTM talabalari kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi. Tadqiqot doirasida turli raqamli platformalar (masalan, interaktiv ta'lim tizimlari, videodarslar, onlayn forumlar va mobil ilovalar)dan foydalanish talabalarning og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalariga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi kuzatildi.

Eksperimental guruhda raqamli texnologiyalar asosida o'tkazilgan darslar natijasida talabalar o'rtasida quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatildi:

1. Og'zaki muloqot ko'nikmalari – talabalar o'z fikrlarini ravon va ishonch bilan bayon qilishda sezilarli o'sishni namoyon etdilar.[7]
2. Yozma muloqot ko'nikmalari – elektron pochta, forumlar va loyiha taqdimotlari orqali yozma nutqni ifodalash malakalari rivojlandi.
3. Axborot bilan ishlash madaniyati – talabalar ishonchli manbalarni topish, tahlil qilish va qayta ishlash bo'yicha yangi ko'nikmalarga ega bo'lishdi.
4. Axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish ko'nikmalari – talabalar onlayn platformalardan mustaqil ta'lim olishda samarali foydalana olishni o'zlashtirdilar.[8,9]

O'qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini tashkil etish o'zining pedagogik xususiyatlariga ega (1.1-jadval). Raqamli texnologiyalarning asosiy funksiyalari tahlilida tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar orqali kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda quyidagi funksiyalar aniqlanib, amalda o'z tasdig'ini topdi:


1.1-jadval

Funksiya nomi	Mazmuni va namoyon bo'lishi
Motivatsion	Interaktiv va multimedia vositalari orqali talabalar bilim olishga qiziqish bildirishdi, darslarda ishtirok faolligi oshdi.
Axborot	Raqamli platformalar orqali talabalarga dolzarb, tezkor va yangilanadigan ma'lumotlar taqdim etildi.
Kommunikativ	Onlayn guruh ishlari, forumlar va chatlar orqali talabalar o'zaro fikr almashish va muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lishdi.
Kooperativ	Guruhiy loyiha ishlari orqali talabalar jamoaviy fikrlash, hamkorlikda muammo yechish kabi ko'nikmalarni egallashdi.
Reflektiv	Talabalar o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini tan olish va to'g'rilashni o'rganishdi.

Adaptiv	Har bir talabaning shaxsiy rivojlanishiga mos o'qitish uslublarini tanlash imkoni paydo bo'ldi.
----------------	---

Shuningdek, o'rganilgan metodik yondashuvlar asosida raqamli texnologiyalarni an'anaviy dars shakllari bilan uyg'unlashtirish kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda eng samarali yondashuvlardan biri ekanligi aniqlandi. Aksariyat talabalar onlayn muhitda o'zini erkinroq his qilgani, bu esa ular uchun muloqot qilishga qulay psixologik muhit yaratganini ta'kidladilar.[11]

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar yordamida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, bir tomondan, talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ularni mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlashga imkon beradi.



1.1-rasm. Talabalarda shakllantiriladigan kommunikativ funksiyalar.

Muhokama davomida aniqlanishicha, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda quyidagi funksiyalar raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirilgan:

- Motivatsion funksiyasi: raqamli platformalarning interaktiv va vizual jihatdan jozibadorligi talabalarni faol ishtirok etishga undaydi.
- Integrativ funksiyasi: talabalar turli fanlar va kontekstlar doirasida muloqot yuritishni o'rganadilar.[3]
- Reflektiv funksiyasi: **talabalarining** o'z fikrlarini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.
- Kooperativ funksiyasi: guruhlarda ishlash, hamkorlikda masala yechish orqali ijtimoiy-kommunikativ tajriba ortadi.[5]

Shuningdek, o'rganilgan metodik yondashuvlar asosida raqamli texnologiyalarni an'anaviy dars shakllari bilan uyg'unlashtirish kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda eng samarali yondashuvlardan biri ekanligi aniqlandi. Aksariyat talabalar onlayn muhitda o'zini erkinroq his qilgani, bu esa ular uchun muloqot qilishga qulay psixologik muhit yaratganini ta'kidladilar.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar yordamida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, bir tomondan, talabalarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ularni mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlashga imkon beradi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida raqamli texnologiyalar OTM talabalarining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda kuchli vosita sifatida xizmat qiladi. Ular orqali talabalar og'zaki va yozma nutqni shakllantirish, axborotni izlab topish va tahlil qilish, shuningdek, muloqotda erkin va samarali qatnashish malakalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tadqiqotda aniqlanishicha, an'anaviy dars jarayonini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda optimal va barqaror natijalarni beradi. Bu esa zamonaviy pedagogik yondashuvlarning dolzarbligini ko'rsatadi. Talabalarining fikrlash faoliyati, ijodiy yondashuvi va mustaqil ishlash ko'nikmalari raqamli vositalar yordamida ancha faollashdi. Ayniqsa, guruhli loyiha ishlari, onlayn

taqdimotlar, vebinarlar va interaktiv muhokamalar bu jarayonda katta samara berdi. Shu bilan birga, raqamli vositalardan foydalanish jarayonida ayrim muammolar – texnik ta'minot yetishmovchiligi, internet muammolari va ayrim talabalar orasida raqamli savodxonlikning pastligi kabi holatlar kuzatildi. Bu esa mazkur yondashuvni amalga oshirishda tizimli va metodik yondashuvni talab etadi.

Kelgusida raqamli texnologiyalar asosida kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun quyidagilar muhim hisoblanadi:

- ❖ o'qituvchilar va talabalar uchun maxsus metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish;
- ❖ raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan trening va seminarlar tashkil etish;
- ❖ kommunikativ ko'nikmalarni baholash uchun raqamli diagnostika vositalarini ishlab chiqish;
- ❖ maxsus o'quv portallarini yaratish orqali muloqotga yo'naltirilgan mustaqil ta'lim muhiti shakllantirish.

Yuqoridagi bir qator ko'rsatib o'tilgan amaliy ishlarni keying ilmiy tadqiqot ishlarimizda amalga oshirish belgilangan.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar vositasida OTM talabalarining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, u ta'lim sifatini oshirish, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda katta salohiyatga ega ekanligi isbotlandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2909-sonli qarori.
2. Xashimova D.P., Parpiyeva R.A. zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. "iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2020 yil.
3. Xoliqov A.A; Pedagogik mahorat: Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishining talabalari (o'qituvchilari) uchun darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. T.: «iqtisod-moliya», 2011. 432 b.
4. Vigotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya / – Moskva : AST : Astrel : Luks, 2005. – 671 s.
5. Begimqulov U. Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dok. diss. – Toshkent, 2007. – 305 b.

6. Абдуллаева, О. С. (2022). ПРОЕКТИРОВАНИЕ И ИНФОРМАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КАФЕДРЫ. ББК 22.18 С 56, 266.
7. Abdullayeva, O. S., & Muhammadjonov, A. O. (2023, September). Modeling the Development of Department Activities in Higher Education Institutions: Enhancing the Management System with Quantum Communication and Cryptography%. In 2023 International Conference on Sustainable Emerging Innovations in Engineering and Technology (ICSEIET) (pp. 588-591). IEEE.
8. Abdullayeva O. S., Ismanova M. D. IMPROVING THE EFFICIENCY OF THE PROCESS OF PREPARATION FOR TEACHING ACTIVITIES OF THE UNIVERSITY STUDENTS //Теория и практика современной науки. – 2016. – №. 5. – С. 3-5.
9. Abdullaeva O. S. Pedagogical competence of a professional teacher (on the example of 5330200-Informatics and information technology) //Study guide. Publisher: LAP Lambert Academic publishing & Co. KG, Saarbrucken, Germany. – 2018. – С. 105.
10. Abdullaeva O. S. Technology enhance the educational process of professional colleges and academic lyceums (for example, studying the course of informatics and information technology) //Monograph. Publisher: Navruz.-Tashkent. – 2016. – С. 189.
11. Abdullayeva, O.S., Xusayinova, G.A., Muhammadjonov, A.O. Technology of projecting of management system for department activities.